

TIQXMMI Buxoro filialining “Mars” va “IceBerg” jamoalari respublika ochiq kubogida

Joriy yilning 3-aprelida Buxoro shahrida “Zakovat” intellektual o'yinining navbatdagi Respublika ochiq Kubogi o'tkazildi. Unda butun Respublikamizdan 60 ga yaqin terma jamoalar qatnashdilar. Murosasiz kechgan o'yinda umujamoa natijalari quyidagicha qayd etildi.



Demak, 1-o'rinni Samarqand viloyatining “Samarqand ichki ishlar akademik litseyi” jamoasi egalladi, 2-o'rinni Buxoro viloyatining “Boqiy Buxoro” jamoasi qo'lga kiritgan bo'lsa, filialning “Mars” jamoasi faxrli 3-o'rin bilan taqdirlandilar, filialning “IceBerg” jamoasi esa kuchli 10 likdan joy egalladi.



TIQXMMI Buxoro filiali Matbuot xizmati
TIQXMMI matbuot xizmati